



KORXONALARDA BOSHQARUV TIZIMI

Andijon davlat texnika instituti 2 kurs Menejment magistranti

Nurmuhammedov Husniddin Hursandbek o'g'li

nurmukhammedovkhusniddin5565@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola korxonalarda boshqaruv tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilinadi. Korxonalar samaradorligini oshirish, resurslardan optimal foydalanish va xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish boshqaruv tizimi orqali amalga oshiriladi. Maqolada boshqaruv tushunchasi, uning asosiy usullari va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Korxona boshqaruvi, boshqaruv tizimi, menejment, iqtisodiy usullar, ijtimoiy-psixologik usullar, tashkiliy usullar, samaradorlik, strategik boshqaruv, resurslarni boshqarish, innovatsion boshqaruv mexanizmlari.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты системы управления на предприятиях. Повышение эффективности предприятий, оптимальное использование ресурсов и стимулирование трудовой активности сотрудников осуществляется посредством системы управления. В статье анализируется концепция управления, ее основные методы и современные механизмы управления.

Ключевые слова: управление предприятием, система управления, управление, экономические методы, социально-психологические методы, организационные методы, эффективность, стратегическое управление, управление ресурсами, инновационные механизмы управления.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarning samarali faoliyati ularning boshqaruv tizimi sifatiga bevosita bog'liqdir. Bozor munosabatlarining rivojlanishi,



raqobatning kuchayishi va global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuv zahirida har bir korxona samarali boshqaruv mexanizmini shakllantirishga majburdir. Boshqaruv tizimi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan tejamkor foydalanish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi, balki xodimlarning mehnat faoliyati, motivatsiyasi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarda boshqaruv tizimining samaradorligi ularning raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va bozor o'rnini mustahkamlash bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari — iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va tashkiliy usullarni uyg'unlashtirish — korxona faoliyatining sifatini va samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Boshqaruvning iqtisodiy usullari xodimlarni moddiy rag'batlantirish orqali samaradorlikni oshiradi, ijtimoiy-psixologik usullar esa xodimlarning tashabbuskorligini rag'batlantirib, jamoaviy ishni kuchaytiradi. Tashkiliy usullar esa rahbariyatning ma'muriy hokimligi va tizimli nazoratni ta'minlaydi. Shu bois, korxonalarda boshqaruv tizimini shakllantirish va uning samaradorligini oshirish bugungi kunda iqtisodiyotning muhim dolzarb masalasi hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, mulk egalari va xodimlar manfaatlarini uyg'unlashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash boshqaruvning sifatiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, korxonalarda boshqaruv tizimini o'rganish, uni takomillashtirish va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, bu mavzu dolzarbligini kundan-kunga oshirib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan boshqarish tushunchasiga turlicha ta'riflar beriladi jumladan M.X.Meskon, M.Albert, F. Xedourilar: "Boshqarish – bu tashkilotning maqsadlarini aniqlash va ularga erishi uchun rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat jarayonidir" deb ta'rif beradilar.[1] P.F.Druker esa



boshqaruvga "... betartib olomonni samarali va mahsuldor guruhga aylantiruvchi alohida faoliyat turidir" deb hisoblaydi[2]. M.Qosimov tomonidan: "Menejment (boshqaruv) – bu tashkilotning maqsadiga erishishidagi munosabatlar va faoliyatlarni rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish, mehnat taqsimotini oqilona muvofiqlashtirish, xodim orasida moyillik mexanizmini adolatli qo'llash va ularning bajarilishini nazorat qilishdir. Buning uchun hodisalar, jarayonlar, munosabatlar va xizmatlar haqida ma'lumotlar to'planadi, ularga ishlovlar beriladi, tahlil qilinadi, o'rganiladi, boshqaruv echimlari qabul qilinadi rahbarlar rahnamolik qiladi", – deb ta'rif beriladi[3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalar boshqaruv tizimini shakllantirish umumiy holda boshqaruv usullari tizimlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Zaruriy natijaga erishish maqsadida tashkiliy tizim faoliyatini amalga oshirish boshqaruv tizimini ushbu tizimga ta'sir etishi orqali bajariladi. Bunda belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi ta'sir etishning zaruriy vositalarini belgilash zarur. Bunday vositalar boshqaruv usullarini belgilaydilar. Boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va tashkiliy usullari mavjuddir. Ushbu usullar o'zaro bog'liqdirlar hamda ulardan kompleks tarzda foydalaniladi. Tashkiliy usullar iqtisodiy usullardan foydalanish uchun asos yaratsalar, ijtimoiy-psixologik usullar tashkiliy va iqtisodiy usullarni to'ldirgan holda korxona faoliyatini boshqarishning zaruriy vositalar to'plamini yaratadilar. Biz quyida ushbu usullarni ko'rib chiqamiz. [4,5]

1. Boshqaruvning *iqtisodiy* usullari. Bu usulda shaxsning ijtimoiy jarayonlarda ishtirokiga bog'liq bo'lgan moddiy manfaatlari tatbiq etilishi ifodalanadi va bu amalda buyum-pul munosabatlaridan foydalaniladi. Ushbu usullar tatbiq etilishining ikkita tamoyili mavjuddir.

Birinchi tamoyil tashqi muhitning iqtisodiy qismi bo'yicha davlat darajasida yaratilgan holatlardan foydalanishga mo'ljallangan boshqaruv jarayonlarida ifodalanadi. Ushbu tamoyilning mohiyati quyidagicha:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliqqa tortish tizimini shakllantirish;



- korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlari yangilanishini ta'minlovchi amaldagi amortizatsion siyosatini belgilash;
- davlat tarafidan ish haqi, pensiya va h.k.larni minimal darajada belgilash.

Boshqaruvning iqtisodiy usullarini ikkinchi tamoyili turli iqtisodiy richaglardan foydalanishga mo'ljallangan boshqaruv jarayonlariga bog'liqdir va bu richaglar moliyalashtirish, kreditlash, narxlarni shakllantirish, jarimalar va h.k.larni ifodalaydi.

2. Boshqaruvning *ijtimoiy-psixologik* usullari shaxsning ijtimoiy holati sabablarini ifodalaydi. Hozirgi zamon ishlab chiqarish darajasi hamda xodimlarning umumta'lim va professional – malakaviy darajasi o'sishi insonlarning mehnat faoliyati tuzilmalar va qadriyatlarga yo'naltirilgan tuzilmalarda sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Mehnatning tarkibiy va yaratuvchanlik xususiyati, tashabbuskorlikning ifoda etilishi imkoniyati, shaxsning jamoa tarafidan tan olinishi va shu kabi omillar keyingi paytlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ijtimoiy psixologiya qonuniyatlari va xodimning shaxsiy psixikasini anglash va talqin etish ixtiyoriy ishlab chiqarishning samarador boshqarishni zarur sharti hisoblanadi.

3. Boshqaruvning *tashkiliy* usullari majburlash xususiyatiga ega bo'lgan sabablarga asoslanadi. Bunday usullarning mavjud bo'lishi va amaliy jihatdan tatbiq etilishi insonlar tarafidan mehnatni birgalikda tashkil etishga xayrxohlik asosida belgilanadi. Boshqarishning tashkiliy usullari tashkillashtirilgan munosabatlar va rahbariyatning ma'muriy hokimligi tamoyillarga asoslangan xodimlarga ta'sir etish usullari kompleksini ifodalaydi.

Boshqaruvning yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullaridan mohirona foydalanish ko'p hollarda samarador xo'jalik yuritishni ta'minlaydi.

Bozor munosabatlarini shakllantirish bo'yicha iqtisodiy islohotlar ko'p qirrali iqtisodiyot asoslarini barpo etishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi sanoat korxonalarini zamon talablari darajasida



rivojlantirib borishni bevosita o'z ichiga oladi. Chunki dunyo tajribasida va O'zbekistonda orttirilgan tajribadan ko'rinib turibdiki, hozirgi zamon iqtisodiy rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri ham mulkning ommaviy tus olib borayotganligidir. Ma'lumki, respublikamizda mulkdorlar tarkibi va soni tubdan o'zgarib, mulkka xo'jayinlik hissining amaliy mustahkamlanishiga erishmoqda. Korxonalar aksiyalari ochiq savdoga chiqarilib, mulkdorlar sinfini ko'payishiga, kishilarning aksiyaga ega bo'lish ishtiyoqining o'sishiga erishilmoqda.[8]

Samarali mehnat qilish, ijobiy natijalariga erishishdan ommaviy jonbozlikning ortishi va shu kabi boshqa muhim masalalarni hamda bu boradagi yechimi qiyin bo'lgan masalalar bosqichmabosqich hal etilmoqda. Bu hol boshqaruvning bozor iqtisodiyoti mohiyatiga monand ekanligini to'la-to'kis tasdiqlamoqda. Iqtisodiyotda mulkning bevosita o'z egasini topishi, kishilarning ham mulkdor, ham mehnatkash sifatidagi manfaatlarning uyg'unlashuvini ta'minlashda rahbar mehnati va boshqaruv funksiyalarining tashkil etilishi muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ta'kidlash lozimki, sanoat korxonalarida xo'jalik faoliyatining ijobiy natijalari boshqaruv darajasi va sifati bilan uzviy bog'liq ekanligini hayotning o'zi isbotlab turibdi. Shuning uchun sanoat korxonalarida boshqaruvning strategik yo'nalishlarini aniq belgilab olish, uning tarkibiy tuzilishini muvofiqlashtirish va boshqaruvning samarali mexanizimi har bir korxona faoliyatiga xos bo'lgan jihatlar asosida tashkil etish istiqboli rivojlanishning asosiy garovi bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Fikrimizcha boshqaruvni yaxshilash uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish kerak:

1. O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarini boshqarishni milliy modelini yaratish borasida ilmiy izlanishlar zarur. Rahbar funksiyalari mavzusini tadqiq etishni rivojlantirish borasida uni davlat granti mavzulariga kiritish lozim.

2. O'zbekiston va uni regionlari sharoitidan kelib chiqib boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar turkumlanishini ishlab chiqish



kerak.

3. Boshqaruv faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun avvalambor korxona ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarning har bir birligidan tejamkorlik bilan foydalanish yo'lga qo'yish lozim. Har bir birlik iqtisodiy resursdan chiqadigan mahsulot miqdorini oshirishga harakat qilish kerak. Masalan, xom ashyodan chiqadigan mahsulot miqdorini oshirishga erishish kerak. Natijada, resurslarni tejash orqali korxonaning foydasi ortadi va samaradorligi darajasi yuksaladi.

4. Boshqaruv maqsadlarini to'g'ri shakllantirish va strategik maqsadlarga erishish yo'lidagi operativ maqsadlarni to'g'ri tuzish va har bir davrda bu operativ rejalarni bajarilishini ta'minlash.

5. Korxonalardagi ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirishga tomon harakatni amalga oshirish. Ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyani qo'llash hamda ularning har biridan iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'lida foydalanish. Korxonaga o'rnatiladigan har bir texnik va texnologik jixozning iqtisodiy samara berishiga erishish.

6. Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish. Ishlab chiqarishni tashkil etish tamoyillaridan oqilona foydalanish. Ishlab chiqarishni tashkil etishda uzluksizlik, tejamkorlik, to'g'ri oqimlilik, mutanosiblik, unumdorlilik kabi tamoyillarni qo'llash.

7. Korxonalarda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish. Boshqaruv faoliyatida boshqaruvning zamonaviy tamoyillari va usullaridan foydalanish, rahbarning mas'uliyatini va imtiyozlarini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Meskon, M., Albert, M., Hedouri, F. *Management: Concepts and Applications*. New York: McGraw-Hill, 2012.
2. Drucker, P. F. *Management Challenges for the 21st Century*. HarperBusiness, 2007.



3. Qosimov, M. *Menejment nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
4. Robbins, S. P., Coulter, M. *Management*. Pearson, 2018.
5. Koontz, H., Weihrich, H. *Essentials of Management*. McGraw-Hill, 2010.
6. Fayol, A. *General and Industrial Management*. London: Pitman Publishing, 1949.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va sanoat korxonalari bo'yicha yillik hisobotlar, Toshkent, 2020–2023.
8. Xalqaro va mahalliy ilmiy jurnallar: *Journal of Business Research, Management Science, O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 2018–2023.
9. Pugh, D. S., Hickson, D. J. *Writers on Organizations*. London: Penguin Books, 2007.
10. Hellriegel, D., Slocum, J. W. *Organizational Behavior*. Cengage Learning, 2011.